

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMADBOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“KOMPYUTER GRAFIKASI”
(KMG2406) fanidan**

**SILLABUS
(2-bosqich)**

Bilim sohasi:	600 000 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta‘lim sohasi:	610 000 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta‘lim yo‘nalishi:	60610400 – Dasturiy injiniring

Andijon - 2025

© Ushbu hujjat Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2025	Ushbu sillabus Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “___”-_____ dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Tuzuvchi: M.Djuraboyev “Kompyuter injiniringi” kafedrası katta o‘qituvchisi
	Taqrizchilar: H. Ikromov - AndDTI, “Axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti. N. Alimqulov - AndDU, “Axborot texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi texnika fanlari falsafa doktori. (PhD)

MUNDARIJA

1. Fan tavsifi.....	4
2. Fanning dastlabki rekvizitlari.....	4
3. Fan maqsadi.....	4
4. Ta’lim berish natijalari.....	5
5. Ta’lim berish usullari.....	5
6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar	6
7. Adabiyotlar	7
8. Soatlar/Kreditlar	8
9. Fanning tarkibiy tuzilishi	8
10. Talabalar bilimni baholash	10
11. Akademik talablar.....	11

Kompyuter grafikasi (KMG2406)

1. Fan tavsifi

“Kompyuter grafikasi” fani talabalarda grafik dizayn sohasiga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Fan davomida talabalar Adobe Photoshop, CorelDRAW va InDesign dasturlari bilan ishlashni o‘rganadilar. Ular vizual aloqa vositalarini loyihalash, tahrirlash va nashrga tayyorlash jarayonlarini amaliy tarzda bajaradilar. O‘quv jarayonida talabalar logotip, banner, brend identifikatori, broshyura va portfolio kabi real grafik dizayn mahsulotlarini yaratish orqali amaliy tajribaga ega bo‘ladilar.

Ushbu sillabus University of North Carolina at Chapel Hill ARWU reytingida 35-o‘rinda turuvchi oliy ta‘lim muassasasining “Foundations of Graphic Design”, (MEJO 182 – Foundations of Graphic Design) rasmiy sillabuslari asosida tayyorlangan.

chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://parklibrary.mj.unc.edu/wp-content/uploads/sites/8204/2022/08/Barnes_MEJO-182_001-Syllabus-Fall-2022.pdf?utm_source=chatgpt.com

2. Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fanni o‘zlashtirish uchun talabalarda quyidagi boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalar bo‘lishi zarur:

- Operatsion tizimlar (Windows yoki macOS) bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasi;
- Grafik fayl formatlari (JPG, PNG, PDF, CDR, PSD va boshqalar) haqida umumiy tushuncha;
- Kompyuter periferik qurilmalari (klaviatura, sichqoncha) bilan tez va to‘g‘ri ishlash amaliyoti;
- Microsoft Word, PowerPoint va PDF fayllar bilan ishlash malakasi;
- Mazkur tayanch bilimlar “Kompyuter savodxonligi” va “Axborot texnologiyalariga kirish” fanlari doirasida shakllantirilgan bo‘lishi tavsiya etiladi.

3. Fan maqsadi

Fanning asosiy maqsadi — talabalarda Adobe Photoshop, CorelDRAW va InDesign kabi zamonaviy grafik muharrirlar yordamida raqamli va bosma grafik materiallarni yaratish, tahrirlash va taqdim etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Fan doirasida talabalar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqil ishlash malakasini egallaydilar:

- Logotip dizayni;

- Sahifalash (layout) va matn-bloklar joylashuvi;
- Rang uyg'unligi va nazariyasi;
- Tipografiya asoslari;
- Vizual kompozitsiya va dizayn strukturasi.

4. Ta'lim berish natijalari

Fanni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar:

- Grafik dizaynning asosiy tushunchalari, tamoyillari va metodlarini tushunadi
- Adobe Photoshop, CorelDRAW va Adobe InDesign dasturlarida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi
- Logotip, post, banner, brend sahifa va broshyura kabi grafik mahsulotlarni mustaqil loyihalashni bajara oladi
- Raqamli (digital) va bosma (print) dizaynlar uchun mos vizual yechimlarni ishlab chiqadi
- Shaxsiy dizayn portfolioni shakllantiradi va taqdim etadi
- Vizual tahlil qilish, tanqidiy baholash va asosli fikr bildirish ko'nikmasini namoyon etadi

5. Ta'lim berish usullari

“Kompyuter grafikasi” fanini o'qitishda quyidagi ilg'or va zamonaviy pedagogik usullar qo'llaniladi:

- Real vaziyatlarga asoslangan amaliy topshiriqlar bajarish;
- Grafik dizayn bo'yicha esse, tezis va kichik maqolalar yozish;
- Keys-study (vaziyatli topshiriqlar) orqali tahliliy fikrlashni rivojlantirish;
- Jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi asosida bosqichma-bosqich kompetensiyalarni shakllantirish;
- Muhokama va tahlil asosida faol ishtirokni rag'batlantirish;
- Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkil qilish;
- Loyiha asosidagi ta'lim: real grafik loyiha ustida ishlash;
- Mustaqil topshiriqlar va ijodiy ishlarni bajarish;
- Taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash va jamoada taqdim etish;
- Turli darajadagi testlarni ishlash (nazariy va grafik testlar);
- So'rovlar orqali auditoriyaning fikrini aniqlash va tahlil qilish;
- Grafik muammoni mustaqil hal qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar asosida tizimli yondashuv;
- Real mijoz modelida asoslangan topshiriqlar (masalan, logotip, banner, broshyura dizayni);
- Dizayn review sessiyalari: guruhda ishlarni tahlil qilish va fikr bildirish;

- Mustaqil va guruh shaklida yakuniy loyiha ishlab chiqish;
- Onlayn dizayn platformalari (Behance, Canva va boshqalar)dan foydalanish;
- Portfolio asosida yakuniy dizayn taqdimoti.

6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Adobe Photoshop interfeysi va asosiy vositalari haqida tahliliy taqdimot tayyorlash.
2. Raster va vektor grafikalar farqlari bo'yicha infografika yaratish (CorelDRAW).
3. Photoshop'da maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan post dizayn tayyorlash.
4. Instagram uchun reklama banner dizayn konsepsiyasini ishlab chiqish (Photoshop).
5. CorelDRAW'da logotip dizaynini eskizdan final variantgacha yaratish.
6. Adobe Photoshop'da 3 xil rang palitrani tahlil qilish va taqqoslash.
7. CorelDRAW va Photoshop imkoniyatlarini texnik jihatdan solishtirish.
8. BrendBook (Brand Style Guide) dizayn konsepsiyasini yaratish (CorelDRAW yoki InDesign).
9. Vizitka dizaynini yaratish va printga tayyor formatda saqlash.
10. Tipografiya turlarini vizual namunalar bilan tahlil qilish (InDesign asosida).
11. RGB va CMYK rang modellari bo'yicha amaliy dizayn misollari tayyorlash.
12. Dizayn kompozitsiyasi. kontrast, balans, takrorlanish elementlarini tahlil qilish.
13. Photoshop'da selection tools yordamida kichik kompozitsiya yaratish.
14. CorelDRAW'da vektor shakllar bilan kombinatsiya hosil qilish.
15. Savdo bannerini yaratish. mahsulotga e'tiborni jalb etish usullari (Photoshop).
16. Kreativ reklama dizayn konseptini ishlab chiqish (real mahsulot asosida).
17. Portfolio uchun logotip, post va banner dizaynlarini birlashtirib taqdim etish.
18. Photoshop'da qatlamlar (layers) asosida grafik kollaj yaratish.
19. Logotip dizayn jarayoni. kontseptual fikrdan tayyor faylgacha bosqichma-bosqich.
20. Mahsulot qadoqlanishi dizaynini mockup shaklida ishlab chiqish (Photoshop).
21. CorelDRAW'da real obyektga asoslangan vektor kompozitsiya yaratish.

22. Tipografik poster dizayni tayyorlash (minimal uslubda, InDesign).
23. Photoshop'da fotomanipulyatsiya asosida kollaj yaratish (san'at yoki reklama uchun).
24. Raqamli banner dizaynidagi zamonaviy trendlar bo'yicha tahliliy izlanish.
25. CorelDRAW'da shakllardan foydalanib ma'lumotli infografika yaratish.
26. Firma blankasi va tashrif qog'ozi uchun yagona dizayn konsepti yaratish.
27. Photoshop, InDesign va CorelDRAW'da eksport formatlari tahlili va qo'llanilishi.
28. Photoshop'da effekt va filterlar orqali grafik uslub yaratish (eksperiment).
29. InDesign'da sahifalash va grid asosida 4 sahifali broshyura dizayni yaratish.
30. Yakuniy loyiha. logotip, banner, post va broshyurani o'z ichiga olgan to'liq brend dizayn paketi tayyorlash.

7. Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. M.K.Duraboyev, B.M.Hakimov «Kompyuter grafikasi» o'quv qo'llanma – Andijon, AnDU, 2024. 169 b.
2. Anton K.K., DeJarld T. Adobe Photoshop Classroom in a Book. – 2023. – 448 b.
3. CorelDRAW Graphics Suite 12 User Guide Corel Corporation. — Ottawa, Kanada Corel Corporation, 2003. — 548 b.
4. Adobe InDesign CS5 Scripting Guide: JavaScript / Adobe Systems Inc. — San-Jose, AQSH: Adobe Systems Inc., 2010. — 204 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Thinking with Type – Ellen Lupton, 2021
2. Color Design Workbook: A Real World Guide to Using Color in Graphic Design – Adams Morioka, 2018
3. Logo Design Love: A Guide to Creating Iconic Brand Identities – David Airey, 2020
4. The Elements of Graphic Design – Alex W. White, 2017
5. Layout Essentials: 100 Design Principles for Using Grids – Beth Tondreau, 2019
6. Designing Brand Identity – Alina Wheeler, 2022
7. Visual Grammar – Christian Leborg, 2018
8. Fundamentals of Typography – Gavin Ambrose & Paul Harris, 2020

Axborot manbaalari

1. www.adobe.com – Adobe rasmiy portal
2. www.behance.net – Dizaynerlar portfoliolari
3. www.freepik.com – Vektorlar va grafik materiallar
4. www.canva.design – Interfeys asosida dizayn yaratish
5. www.w3schools.com/graphics – Grafik texnologiyalar asoslari
6. www.youtube.com/Adobe – Adobe video darsliklar (rasmiy)
7. www.ziyounet.uz – O‘zbekiston milliy ta’lim portali

8. Soatlar/Kreditlar

4-semestr kredit modul miqdori – 6 ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System, Evropa kredit o‘tkazish va jamg‘arish tizimi)

Ta’lim turi	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta’lim	Jami
Kunduzgi	30	-	42	108	180
Yillik, jami	30	-	42	108	180

9. Fanning tarkibiy tuzilishi

Kunduzgi.

№	Mavzu nomi	Qamrab oluvchi dasturlar	Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlar rejasi	Soatlar		
				Ma’ruza mashg‘ulotlari	Laboratoriya mashg‘ulotlari	Mustaqil ta’lim
1	Grafik dizayn asoslari va sanoatdagi o‘rni	Umumiy	<ul style="list-style-type: none">• Grafik dizayn tarixi va asosiy tushunchalar bilan tanishtirish• Dizayn namunalarini tahlil qilish• Yaxshi/yomon dizayn misollarini topish va tahlil qilish.	2	2	7
2	Photoshop. interfeys, qatlamlar va tanlash	Photoshop	<ul style="list-style-type: none">• Rastri grafikalar asoslari, rang sozlash, filtr va effektlar• Photoshop’da rasm	2	2	7

	uskunalari		tahriri • Oldin/hozir rasm variantlarini tayyorlash.			
3	Rastrli tasvirlar bilan ishlash. rang, filtrlash va effektlar	Photoshop	• Photoshop interfeysi, qatlamlar va tanlash vositalari • Amaliy dizayn yaratish. Qatlamlar sxemasini chizish va izohlash.	2	2	7
4	Vektor grafika asoslari va CorelDRAW interfeysi	CorelDRAW	• Vektor grafikasi va CorelDRAW interfeysi • Shakllar bilan ishlash • Raster vs vektor grafikani taqqoslovchi jadval tayyorlash.	2	2	7
5	Shakllar, yoʻnalishlar va matn bilan ishlash (vektor asosida)	CorelDRAW	• Shakllar, konturlar va matn bilan ishlash • Vektor banner yaratish • Matn+shakl asosida mini-banner tayyorlash.	2	2	7
6	Logotip va brend identifikatori dizayni	CorelDRAW	• Logotip va brend identifikatori tushunchasi • Vektorli logotip yaratish • Mashhur logotiplarni tahlil qilish.	2	2	7
7	Tipografiya asoslari. shriftlar, maketlar	Photoshop / InDesign	• Tipografiya, shriftlar va maket asoslari • Matn dizayni • Tipografik xatolarni aniqlovchi misollar tayyorlash.	2	2	7
8	Raqamli banner va reklama materialini yaratish	Photoshop / CorelDRAW	• Rang nazariyasi, ranglar uygʻunligi • Rang palitrasi yaratish • Brend rang sxemasi asosida dizayn qilish.	2	2	7
9	Rang nazariyasi. RGB, CMYK va brending	Umumiy	• Banner dizayni tamoyillari • SMM banner yaratish • Onlayn bannerlarni	2	2	7

			tahlil qilish.			
10	Adobe InDesign interfeysi va matn-bloklar bilan ishlash	InDesign	<ul style="list-style-type: none"> • InDesign interfeysi, text frame va sahifalar • Matn-rasm joylashuvi • Sahifa kompozitsiyasi tahlili. 	2	4	7
11	Sahifalash va kompozitsiya. grid, alignment, whitespace	InDesign	<ul style="list-style-type: none"> • Grid tizimi, hizalash va whitespace • 2 ustunli maket yaratish. • Layout xatolarini tahlil qilish. 	2	4	7
12	Multisahifali broshyura va nashr tayyorlash	InDesign	<ul style="list-style-type: none"> • Broshyura formatlari va sahifalash • 4 sahifali broshyura dizayni • Broshyura oqimini chizmada ko'rsatish. 	2	4	7
13	Portfolio tayyorlash va ishlarni eksport qilish (PDF, JPG, PNG)	Barcha	<ul style="list-style-type: none"> • Portfolio tuzilmasi va eksport formatlari • Portfolio tayyorlash • Behance/Dribbble platformasini tahlil qilish. 	2	4	8
14	Dizayn tahlili va tanqidiy fikrlash (Critique Session)	Umumiy	<ul style="list-style-type: none"> • Dizayn baholash mezonlari • O'zaro fikr almashish • Talabalar bir-birining ishini tahlil qiladi. 	2	4	8
15	Yakuniy semestr loyihasini tayyorlash va topshirish	Photoshop + CorelDRAW + InDesign	<ul style="list-style-type: none"> • Yakuniy loyiha talablari • Logo, banner, brend sahifasi tayyorlash • Portfolioga joylashtirish va taqdimot. 	2	4	8
Jami soat				30	42	108

10. Talabalar bilimni baholash

Maksimal va saralash	Ma'ruza mashg'ulotlarida 30 ball	Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarida	Jami	Yakuniy nazorat	Jami
----------------------	----------------------------------	--	------	-----------------	------

ballari			30 ball				
	Oraliq nazoat uchun	Mustaqil ta’lim	Joriy nazorat uchun	Mustaqil ta’lim	60	40	100
Maksimal bal 100%	15	15	15	15		Fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan grafik asosida, YN jarayoni test shaklida HEMIS platformasi orqali amalga oshiriladi (ayrim fan xususiyatlaridan kelib chiqib YN turi boshqa shakllarda ham o‘tkazilishi mumkin)	
Saralash bali 60%	Saralsh bali 36 ball						
Nazoratni o‘tkazish muddati va shakli	Fanning 70 foiz o‘zlashtirilganda (yozma, amaliy ish, og‘zaki, test)		Amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlar davomida (yozma, amaliy ish, og‘zaki, test)				

Talabaniy semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$YaB = JN + ON + YaN$$

Bu yerda. JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; YaN — yakuniy nazorat.

Eslatma. dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to'play olmagan talabaniy yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.

11. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'trasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo'lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaniy bajargan topshirig'i 2 martagacha antiplagiat dasturida

tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo'lmasa, ish qabul qilinmaydi.